

2022 й. «22» 8

62-12-175-MT/2022-сон

Xonqa tumani

Keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Xonqa tumani Maktabgacha ta’lim bo‘limi** nomidan **Nizom** asosida ish ko‘ruvchi mudiri **F.Sabirov** bir tomondan, keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «**REGION STANDART QURILISH**» MCHJ nomidan **Ustav** asosida ish yurutuvchi **R.Yusupov**.

## 1. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi;

**-ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi tug'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda ko'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiklovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiklanganligi tug'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'grisidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'grisidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

**-qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning kurilish maydoni chegarasi ajratib kuyiladi yoki bosh rejaga muvofik belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab kuyiladi;

**-vaktinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bulgan har kanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

**-berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniklash mumkin bulmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

**-shartnoma narxini bo'lib chiqish** – ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini anik belgilagan holda shartnoma buyicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

## 2. SHARTNOMA MAVZUSI.

1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Xonqa tumani № 2-sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini» joriy ta'mirlash buyicha ob'ektini ko'zda tutilgan loyixa buyicha joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni kabul kilish va tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## 3. SHARTNOMA BUYICHA ISHLAR KIYMATI.

1. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar kiymati barcha soliklar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini uz ichiga olgan xolda katalog, bozor, birja va joriy narxlarda **QQS bilan 304 000 000 (uch yuz to'rt million) so'mni** tashkil etadi.

2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, kuyidagi hollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar qiymati buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

3. Kurilish muddati bir yildan ortik bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniklashtirish konun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga ko'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### 4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

1. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bulimida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofik ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda uzining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni kabul kilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'grisida xabardor qilish;

- qurilish maydonida texnika havfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tkazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sugurta qilish;

- mazkur shartnoma buyicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'grisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

-qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'grisida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.

-mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan uzining 20% ga teng bulgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tamonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

3. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) tuliq hajmda takdim qiladi.

4. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### 5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-kurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan kabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat kilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini un kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofik avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkurshartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'lik hajmdabajarish

majburiyatlarini oladi;

2. Buyurtmachi mazkur shartnomada kuzda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki etarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

## 6. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

1. SHartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.
2. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofik ishlarni bajaradi.
3. Ob'ektni **2022 yil «21» oktyabrgacha** foydalanishga topshirilishi belgilanadi.
4. SHartnomaning amal kilish muddati **31.12.2022 yilgacha**

## 7. TULOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

1. SHartnoma buyicha o'zaro hisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu **91 200 000 ( to'qson bir million ikki yuz ming)** so'mni tashkil etadi.
2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar uch banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)
3. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar hajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali buyicha amalga oshiradi.
4. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bulgan materiallar, texnika resurslari, mehnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.
5. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun hisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun hisob kitob uchun kurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'grisidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'grisidagi ma'lumotnoma xisob-varak-fakturani» o'zi tuzib takdim kiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va harajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.
6. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilishmontaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan sung Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan kabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati tugrisidagi ma'lumotnoma-xisob-varak-faktura» asos buladi.
7. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma buyicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yuq qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

## 8. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

- 8.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning o'fdini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.
- 8.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.
- 8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion

holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

## BUYURTMACHI

1. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u

Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.

2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xukukiga egadir.

3. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo buluvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

4. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

5. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chikishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifati ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

6. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniklasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda kayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

7. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida etkazib berilmasligi bilan bogliq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qonikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida uz fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini uz zimmasiga oladi.

## 9. ENIGB BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

2. Agar engib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun kanday choralar ko'rilishini muxokama kiladilar.

3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab qilishga xaqlidir.

## 10. KAFOLATLAR.

1. Pudratchi:

- barcha ishlarni tuliq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatiziyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni kabul kilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaktida bartaraf kilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofikligini kafolatlaydi.

Mavjud nuksonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida kayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat iichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% mikdorida jarima solish xuquqiga ega.

## **11. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.**

### **1. Buyurtmachi:**

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun xujjatlariga muvofik boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab

qilish xukukiga ega.

### **2. Pudratchi:**

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga to'xtatib ko'yilganda;

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda; qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab

qilish xukukiga ega.

3. SHartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga tulaydi.

4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

5. SHartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

6. SHartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l ko'yilmaydi, konun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

## **12. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.**

1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksida, Uzbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 may 2003 yildagi PF-3240 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 395-sonli qarori bilan, boshqa qonun xujjatlarida xamda

mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga etkazilgan zararlarni qoplaydi.

2. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar hajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi hollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

-Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmdaishlarni bajarsa, majburiyatlarning bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

4. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxonaga atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tomonga shartnoma bahosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

5. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

6. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.

7. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

### 13. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

1. SHartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek etkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muhokama bilan kelishuvga erishmasalar, u holda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

### 14. ALOXIDA SHARTLAR

1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yuqotadi.

2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy hisoblanadi.

3. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qushimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

4. Agar Pudratchi shartnoma buyicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi kurilish maydonini ozod kilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak tulashni kechiktirishga xaklidir.

5. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga K.K.S. to'grisida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.

6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qo'llaniladi.

7. Mazkur shartnoma tamonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va barcha ko'zda tutilgan shartnoma shartlari to'laligicha bajarilgunga qadar amal qiladi.

8. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 3 nusxada tuzildi.


IJO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: TP42661466

## 15. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

«BUYURTMACHI»

«PUDRATCHI»

Byudjetdan mablag oluvchi <b>Xonqa tuman maktabgacha ta'lim bo'limi</b>	«REGION STANDART QURILISH» MCHJ
Manzil: <b>Xonqa tuman Imorat ko'chasi 1-uy</b>	Manzil: <b>Xonqa tuman Obja qishlog'i</b>
Tel/faks <b>39-91-713</b>	Tel: <b>94-230-30-30</b>
sh/x* <b>100022860332237091100251002</b>	x/r: <b>2020 8000 2002 5291 0001</b>
Byudjetdan mablag oluvchi <b>SRIR 305155680</b>	Bank nomi: <b>ATB "Qishloq qurilish bank"ning Xorazm mintaqaviy filiali</b>
<b>OKONX 84112</b>	<b>MFO:01037</b>
Moliya Vazirligi <b>YAgona Gazna xisobvaragi</b>	<b>INN: 302 696 880</b>
<b>Gazna x/v 23402000300100001010</b>	
Bank nomi <b>Toshkent sh,Markaziy bankning</b>	
<b>Toshkent sh, XKKM</b> MFO: <b>00014</b>	
<b>Gaznachilik bulinmasi STIR i 201122919</b>	
Mudiri: <b>F.Sabirov</b>	Rahbari: <b>R.Yusupov</b>



# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA.

№ TP42661466

1. Loyihaning turi: SHARTNOMA

2. Loyihaning nomi:

«REGION STANDART QURILISH» MCHJ korxonasi bilan Xonka tuman  
MTB o‘rtasida PUDRAT SHARTNOMASI

Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Xonqa tumani № 2-sonli  
Maktabgacha ta’lim tashkiloti binosini» joriy ta’mirlash buyicha ob’ektini ko‘zda  
tutilgan loyixa buyicha joriy ta’mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi,  
Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta’mirlash ishlarini bajarish uchun zarur  
sharoitlar yaratish, ularni kabul kilish va tulovni amalga oshirish majburiyatini  
oladi.

Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar  
kiymati barcha soliklar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshka xarajatlarini  
uz ichiga olgan xolda katalog ,bozor, birja va joriy narxlarda QQS bilan 304 000  
000 (uch yuz to‘rt million) so‘mni tashkil etadi

3. Loyiha tashkilot tomonidan ishlab chiqilganligi xaqidagi ma’lumot:

Loyiha ishlab chiqaruvchi tomonidan 2022 yil 18 avgustda dasturga kiritilgan.

4. Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarilgan va uni  
qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Xonqa tuman yuridik xizmat ko‘rsatish  
markazi boshlig‘i**



**A.Niyozmetov**

2022-yil «22» avgust

Юрист исм фамилияси: NIYOZMETOV ANVAR QO‘CHQOROVICH



Жорий таъмирлаш ишларини бажариш графиги

сўмда

Бажарилдиган ишлар	Бажарилдиган ойлари												
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Жорий таъмирлаш								91200000	212800000				

«REGION SNANDART QURILISH» MSNJ

Хонка тумани Мактабгача таълим бўлими

Раҳбари:

Р.Юсупов

Мудри:

Ф.Сабилов



Объектни жорий таъмирлаш бўйича молиялаштириш графиги

Шартномага 1-илова

Молиялаштириш шарти	Молиялаштириш ойлари												
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Олдиндан тулов 30%								91 200 000					
Бақарилган ишларга асосан 70%							1212 Kcd	212-800-000					

Сўмда

«REGION SNANDART QURILISH» MCHJ



Раҳбари:

Р.Юсулов

Мудир:

Хонка тумани Мактабгача таълим бўлими



Ф.Сабилов

# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 132417 на приобретение Хонка тумани 2-сон мактабгача таълим ташкилотини жорий таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 18.08.2022

Время рассмотрения 16.08.2022 20:12

Конкурсная комиссия Хонка туман мактабгача таълим булими марказлашган бухгалтерия, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	BABAJANOV ANVAR SALAYBAYEVICH	комиссия аъзоси	Хонка тумани МТБ
<b>Секретарь комиссии</b>	ATAJANOV MANSUR QARRIYEVICH	Э.Х бошлиги	курулиш комиссия
<b>Член комиссии</b>	QUTLIYEV SARVARBEK PO'LATOVICH	комиссия аъзоси	Хонка тумани МТБ
<b>Член комиссии</b>	HASANOV AZIZBEK G'AYRAT O'G'LI	комиссия аъзоси	Хонка тумани МТБ
<b>Член комиссии</b>	RO'ZMETOV SHAHZODBEK FARXOD O'G'LI	комиссия котиби	Хонка тумани МТБ
<b>Член комиссии</b>	OLLABERGANOV XAYRULLA FAYZULLA O'G'LI	Мутахассис	Хонқа туман ҳокимлиги

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 18.08.2022 года № лота 132417.  
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту нежилых зданий</b>
Подробное описание	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	304 451 607.00
Стартовая сумма	304 451 607.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Курилиш майдонини кўрганлик тўғрисидаги маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Буйуртмачи томонидан бириктирилган масул ходим билан биргаликда иш хажми ва хусусиятини тўлик ўрганганлиги (асословчи хужжатлар ёки фоторасм)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	10	10	10	Экспертная		
REGION STANDART QURILISH M.Ч	10	10	10	Экспертная		
ABU BAKR STROY OOO	10	fayl birktrildi	10	Экспертная		

Критерий №2 Солаховий курилиш-пудрат ташкилотлари электрон рейтингда ССС ундан юукори рейтинг бохога ега бўлиши

Тип: Текстовое значение

Описание: Рейтинг кўрсаткичларига мувофик объектда юукори тажрибага эга бўлган ташкилотларни жалб этиш мақсадида рейтинг баҳоси ССС ундан юукори бўлган ташкилотлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	15	15	10	Экспертная		
REGION STANDART QURILISH M.Ч	15	15	15	Экспертная		
ABU BAKR STROY OOO	15	fayl birktrildi	15	Экспертная		

Критерий №3 Ўтган йилларда объектга ўхшаш ишларни бажарганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Кабул комиссиясининг ёки буйиртмачи ташкилотнинг далолатномалари. Олдинги даврда бажарган ишлари ўз вақтида бажарганлигини асословчи хужжатлар (шартнома ва охириги Ф-3 хисоботи

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	15	15	15	Экспертная		
REGION STANDART QURILISH M.Ч	15	15	15	Экспертная		
ABU BAKR STROY OOO	15	fayl birktrildi	15	Экспертная		

Критерий №4 Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича қарздорлиги мавжуд эмаслиги.Банқдан картатек 2 дан қарздорлиги бўлмаслиги ва айланма маблағлари тўғрисидаги маълумотнома.

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича қарздорлиги мавжуд эмаслиги (танлов эълон қилинган санадан кейин олиниши шарт QR коди билан) Хизмат кўрсатувчи банқдан тасдиқланган маълумотнома.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	20	20	20	Экспертная		
REGION STANDART QURILISH M.Ч	20	20	20	Экспертная		
ABU BAKR STROY OOO	20	fayl biriktirildi	20	Экспертная		

Критерий №5 Молиявий кўрсаткичлар тўғрисида маълумот. 2021 йил учун йиллик баланс ва молиявий натижалар ва фойда солиғи ҳисоботлари.

Тип: Текстовое значение

Описание: Объектнинг буюртмачи белгиланган бошланғич нархнинг 70% гача миқдордаги айланма маблағлар мавжудлиги хизмат килувчи банк томонидан тасдиқланган ҳамда шу санага объектнинг бошланғич нархнинг камида 20 % маблағи ҳисоб рақамда мавжудлиги тўғрисидаги маълумотнома асосида баҳоланади маълумотнома танлов эълон қилингандан кейин олинган бўлиши шарт.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	10	10 Баланс билан айланма маблаг солиқлар билан бирга ташланди	5	Экспертная		
REGION STANDART QURILISH M.Ч	10	10	5	Экспертная		
ABU BAKR STROY OOO	10	bizning aylanma mablaglarimiz yetarli hisob raqamimizda 20 foyiz pul mablaglari mavjud	5	Экспертная		

Критерий №6 Корхона тўғрисида умумий маълумотлар ишчи ходимлар сони

Тип: Текстовое значение

Описание: ишчи ходимлар буйруғи, маълумоти мутахасислиги курилишдаги иш стажлари [my.mexnat.uz](http://my.mexnat.uz) сайти билан мос келиши

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	15	15	15	Экспертная		
REGION STANDART QURILISH M.Ч	15	15	15	Экспертная		
ABU BAKR STROY OOO	15	fayl biriktirildi	10	Экспертная		

Критерий №7 Курилишда фойдаланиладиган машина ва механизмлари рўйхати (Лойиха ҳужжатларига асосан)

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхонада балансида ёки ижара шартномасига асосан мавжуд бўлган, объектнинг лойиха хужжатларида келтирилган машина механизмлар ишлаб чиқарилган йили йук кўтариш куввати кўрсатилган маълумотномаси. ҳамда транспортларнинг техник паспорти ва техник кўриқдан ўтганлиги кўрсатилиши керак. Бошқа машина ва механизмлари мавжудлиги тўғрисида Туман статистика бўлимининг маълумотномаси муҳриланган ва имзоланган кўринишда тақдим қилинади.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	15	15	15	Экспертная		
REGION STANDART QURILISH M.Ч	15	15	15	Экспертная		
ABU BAKR STROY OOO	15	fayl biriktirildi	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ABU BAKR STROY OOO	304 451 607.00	290 000 000.00 UZS	290 000 000.00	00.00	290 000 000.00	11.08.2022 16:59:01	09.97
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	304 451 607.00	289 200 000.00 UZS	289 200 000.00	00.00	289 200 000.00	10.08.2022 20:57:06	10.00
REGION STANDART QURILISH M.Ч	304 451 607.00	304 000 000.00 UZS	304 000 000.00	00.00	304 000 000.00	11.08.2022 12:10:12	09.51

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ABU BAKR STROY OOO	81	9.97	90.97
ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К	81	10	91
REGION STANDART QURILISH M.Ч	85.5	9.51	95.01

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 132417 от 18.08.2022 года на приобретение Хонка тумани 2-сон мактабгача таълим ташкilotини жорий таъмирлаш определила победителем:

REGION STANDART QURILISH M.Ч  
302696880

и резервный исполнитель: ЮКСАК БУНЁДКОР СЕРВИС Х К (301304878)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии

Председатель комиссии	BABA JANOV ANVAR SALAYBAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	QUTLIYEV SARVARBEK PO'LATOVICH	Согласен	
Член комиссии	HASANOV AZIZBEK G'AYRAT O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	RO'ZMETOV SHAHZODBEK FARXOD O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	OLLABERGANOV XAYRULLA FAYZULLA O'G'LI	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по ремонту помещений
Единица измерения	штуки
Количество товара	100
Единица измерения	штуки
Цена единицы товара (с НДС)	1000000
Сумма (с НДС)	100000000
Валюта	USD